

# O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM: INNOVATSIYA VA TADQIQOT

## RESPUBLIKA KONFERENSIYA MATERIALLARI

TOSHKENT - 2020

# «SCIENTIFIC PROGRESS» MARKAZI

# «O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA’LIM: INNOVATSIYA VA TADQIQOT»

## RESPUBLIKA KONFERENSIYA MATERIALLARI

### KONFERENSIYA YO‘NALISHLARI:

1. **Aniq fanlar sohasidagi erishilgan yutuqlar**
2. **Tabiiy fanlarni rivojlantirish masalalari**
3. **Tarix va ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi**
4. **Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari**
5. **Pedagogika va psixologiya sohasidagi yutuqlar**

***Izoh:* To‘plamga kiritilgan materiallarning to‘g‘riligi va haqqoniyligi uchun mualliflarning o‘zi shaxsan javobgar hisoblanadi**

***(TELEGRAM RASMIY KANALI: @online_conference_materials)***

**Ta’sischi: N.Shayxislamov**
**To‘plam 88 betdan iborat**

**TOSHKENT – 2020**

# САНОАТ КОРХОНАЛАРИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАР

Уктамов Хусниддин Фахриддинович,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети, "Иқтисодий хавфсизлик" кафедраси ассистенти

**Аннотация.** Ушбу мақолада саноат корхоналари иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ назарий, ҳуқуқий ва амалий муаммолар кўрсатилган ва уларни ечимлари таҳлил қилинган. Шунингдек,ушбу мақолада COVID-19 пандемияси шароитида корхоналарни иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш йўллари бўйича таклифлар берилган.

**Калит сўзлар:** саноат корхоналари, хавфсизлик, иқтисодий хавфсизлик, иқтисодий хавфсизликни таъминлаш, ҳуқуқий ва амалий муаммолар, COVID-19 пандемияси, концептуал йўналишлар.

Тараққиётнинг ҳозирги босқичида саноат корхоналарнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш муҳим аҳамиятга эга вазифа ҳисобланади. Негаки, иқтисодиётнинг хавфсизлиги ижтимоий-иқтисодий масалаларга доир қарорларни қабул қилиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Иқтисодий тизимдаги ҳар қандай ўзгариш турли хавф-хатар ва таҳдидлар намоён бўлиши билан биргаликда кечади. Саноат корхоналарнинг иқтисодий хавфсизлиги билан боғлиқ назарий муаммоларга қуйидагиларни киритиш мумкин: иқтисодий адабиётларда хавфсизлик тизимининг, улар таркибида иқтисодий хавфсизликнинг ўрни ва аҳамияти очиб берилмаганлиги; иқтисодий хавфсизлик тушунчаси ва унинг турлари бўйича мамлакатимиз олимлари ўртасида ҳамон бир тўхтамга келинмаганлиги; иқтисодий хавфсизликнинг мамлакат, ҳдуд, хўжалик юритувчи субъектлар, ҳар бир шахс бўйича илмий асосланган табақаланган тизимининг ишлаб чиқилмаганлиги; корхонанинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш тамойилларининг етарли даражада асосланмаганлиги; корхоналар иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг асосий вазифалари иқтисодий адабиётларда етарли даражада ёритилмаганлиги; корхонанинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш бўйича концептуал йўналишларнинг ишлаб чиқилмаганлиги; корхонанинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш масалалари фаннинг йўналиши сифатида шаклланмаганлиги кабиларни киритиш мумкин.

Саноат корхоналарнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг ҳуқуқий муаммоларига қуйидагиларни киритиш мумкин: корхоналарнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш ўта муҳим аҳамиятга эгалигидан қатъий назар, мамлакатимизда ҳамон "Иқтисодий хавфсизлик тўғрисида"ги қонуннинг ишлаб чиқилмаганлиги; корхонанинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш бўйича ҳар бир корхонанинг хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, меъёрий ҳужжатлар мажмуасининг ишлаб чиқилмаганлиги; корхонанинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш бўйича ташкилий-таркибий тизимнинг ишлаб чиқилмаганлиги кабиларни киритиш мумкин.

COVID-19 пандемияси шароитида саноат корхонанинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш бўйича ўз ечимини кутаётган амалий муаммоларга қуйидагиларни киритиш мумкин: корхоналар иқтисодий хавфсизлигини баҳолаш бўйича кўрсаткичлар тизимининг ишлаб чиқилмаганлиги; корхонанинг иқтисодий хавфсизлигига таъсир этувчи омиллар тизимининг аниқланмаганлиги ва улар таъсирини ҳисоблаш усулларининг ишлаб чиқилмаганлиги эвазига хавфсизликни таъминлаш бўйича ички имкониятларнинг ишга солинмаётганлиги; корхонанинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашга кетадиган харажатларнинг алоҳида ҳисобга олинмаётганлиги, натижада уларга кетаётган харажатлар самарадорлигини баҳолаш имкониятининг очиб берилмаётганлиги; корхонанинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш хизматининг бир тизимга келтирилмаганлиги ва уларни бошқариш масалаларининг тўлиқ ечилмаганлиги каби муаммоларни киритиш мумкин.

COVID-19 пандемияси шароитида саноат корхоналарнинг иқтисодий хавфсизлиги билан боғлиқ мазкур муаммолар тизимида иқтисодий хавфсизликнинг ўрни ва аҳамияти катталигидан келиб чиқиб, саноат корхонанинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш бўйича янги концептуал йўналишлар тавсия қилдик:

- корхона ҳудудини қўриқлаш тизимини мукаммаллаштириш ва уларни замонавий техник воситалар билан таъминлаш;
- корхона мулкини (асосий воситалар, товар захиралари, хом ашё ва материаллар, ярим фабрикатлар, тайёр маҳсулотлар кабилар) асраш тизимини яратиш ва уни муттасил такомиллаштириб бориш;
- корхоналар мулкини ташиш жараёнида хавфсизликни таъминлаш масаласини замонавий талаблардан келиб чиққан ҳолда такомиллаштириш;
- корхоналарнинг ахборот ва илмий-техник хавфсизлигини таъминлашни такомиллаштириш;
- корхона раҳбарияти ва мулк эгаларининг хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ тадбирларни ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш;
- корхонада содир бўладиган ўғрилик ва кўпорувчилик билан боғлиқ ҳодисаларнинг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга тезлик билан етказиш тизимини такомиллаштириш;
- корхонага кириш-чиқишнинг оптимал режимини жорий қилиш;

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Экономическая безопасноеь России: Общий к\ре: Учебник/ Под ред. В. К. Сенчаюва. - М.: Дело, 2005. - 896 с.

2. Усенко А.М. Диагностика финансовых оиношений коммерческих оршшваций с контрагентами / А.М. Усенко//Финансовые исследования. - 2013. -Л» 1 (38). - С. 55-59

3. *Uktamov H.F.* Problems of Evaluation and Procuring Economic Security At Enterprises. Asian Journal of Technology & Management Research. Vol.10 – Issue: 01 [Jun-2020].

4. Уктамов Х.Ф. Роль эконометрического моделирования в обеспечения устойчивого экономического роста страны. Молодежь в науке: новые аргументы новые аргументы 2018 й. 16-феврал

# M U N D A R I J A



| M U N D A R I J A | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Nazirov N.N.<br>Tashmurodov U.B. | A methodology for applying the terminology of the railway industry in a ten-step conversation | 3 |
| 2 | Убайдуллаева Ш.А. | Туркистон тиббиётининг йўлга қўйилишида Гулсун Асфандиёрованинг ўрни | 5 |
| 3 | Mahkamova M.X. | Ta'limni tubdan isloh qilish va pedagogik mahoratni oshirishda o'ziga xos usullar | 9 |
| 4 | Sohibova N.S. | Dars jarayonida interfaol usullarni qo'llash samaradorligi | 11 |
| 5 | Dadaboyeva S.Y. | Maktabda ona tili darslarini o'qitish | 14 |
| 6 | Orziyeva Sh.B. | Savodga o'rgatishda yangi pedagogik g'oyalardan foydalanish | 16 |
| 7 | Rahimova Sh. | Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligi | 18 |
| 8 | Atabayeva S.A. | Ilmparvar ajdodlarga munosib avlod bo`laylik | 20 |
| 9 | Ярматов Ш.Р. | Жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишнинг ўқувчилар ҳаётидаги аҳамияти | 22 |
| 10 | Тоштемирова Г.Т. | Бошланғич синф ўқувчиларининг китобхонлик маданиятини шакллантиришнинг потенциал имкониятлари | 24 |
| 11 | Hayitova F.B.<br>Jamilov J.H. | Buyuk sarkarda Aleksandrning harbiy yurishlardagi muvaffaqiyat kaliti | 26 |
| 12 | Уктамов Х.Ф. | Саноат корхоналари иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш билан боғлиқ муаммолар | 28 |
| 13 | Safarov U.I. | O'zgarmas tok uzatmali teplovozlarning tortuv elektrdvigatellarini magnit maydonini suyashtirish tizimini takomillashtirish | 31 |
| 14 | Erkinova S.Z. | Chet tili darslarida mustaqil ta'limni joriy etish va undagi dolzarb muammolar | 34 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 15 | Azizova F.I. | O'zbek tilida olmosh tarkibli iboralarning badiiy asarlardagi jozibasi | 38 |
| 16 | Xolmatov I.<br>Xolmatova H. | G'afur G'ulom ijodi tarjimonlik faoliyati | 40 |
| 17 | Raxmatov S.S.<br>Xoliqov B.A. | Avtomobil yo'larida bo'ylama shovqin tasmasi | 42 |
| 18 | Bo'riyeva R.O.<br>Shofiyev O. | "Boburnoma"da joy nomlariga oid so'zlarning qiyosiy tahlili | 46 |
| 19 | Javxarova N.S. | Biologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish – bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish vositasidir | 48 |
| 20 | Xolboyeva A.A. | Matematika darslarida masala va mashqlar xususiyatlariva ularni nazariy darslarda qo'llash | 50 |
| 21 | Xolmatov I.<br>Xolmatova H. | Said Ahmad ijodi | 52 |
| 22 | Нишанов Б.Т. | Жиноятчи психологиясини ўрганишнинг ахамияти | 54 |
| 23 | Зухуров К.З. | Макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва солик тизимининг ривожланишида самарали солиқ маъмурчилигини ташкил этиш таҳлили | 59 |
| 24 | Қулмаматова Х. | Технология дарсларида схемалардан фойдаланиш | 62 |
| 25 | Олимов М. Б.<br>Жаникулова З.М. | Абдурауф Фитрат ижодида тарихий шахслар | 64 |
| 26 | Mashrabova B.N. | The usage of idiomatic expressions and language economy in the process of translations | 67 |
| 27 | Kholikova D.K. | Amir Temur's great contribution to the development of science | 70 |
| 28 | Сафарова З.Т.<br>Тагаева М.Б.<br>Музаффарова Д. | Разработка методов повышения устойчивости растений к засоленным почвам Приаралья | 73 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 29 | Nabijonov O.G. | Tadbirkorlarning innovatsion salohiyati va davlatning innovatsion strategik funksiyasi | 78 |
| 30 | Худайберганов Т.Ф.<br>Нурмухамедов Т.Р. | Таълим тизимида 3D моделларни яратиш ва жорий этишда SOLIDWORKS дастуридан фойдаланиш | 81 |
| 31 | Axatov S.A. | Mustafo Cho’qayev - mustaqillik kurashchisi | 84 |